

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT-PROTSESSUAL KODEKSI

UMUMIY QISM

BIRINCHI BO'LIM ASOSIY QOIDALAR

Oldingi tahrirga qarang.

1-bob. JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIGI

(1-bobning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

1-modda. Jinoyat ishlarini yuritish tartibi

O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat ishlarini yuritish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksi bilan belgilanadi.

Jinoyat ishlarini yuritishning ushbu Kodeksda belgilangan tartibi barcha sudlar, prokuratura, tergov, surishtiruv organlari, advokatura, shuningdek fuqarolar uchun yagona hamda majburiydir.

Oldingi tahrirga qarang.

2-modda. Jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalari

Jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalari jinoyatlarni tez va to'la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlashdan iboratdir.

Jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga yordam qilmog'i lozim.

(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

3-modda. Jinoyat-protsessual qonunchiligining vaqt va hudud bo'yicha amal qilishi

Jinoyat ishlarini yuritish, jinoyat sodir etilgan joydan qat'i nazar, basharti O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlarida o'zgacha qoidalar belgilanmagan bo'lsa, ish yuzasidan surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi yuritilayotgan paytda amalda bo'lgan qonunchilikka muvofiq olib boriladi.

(3-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

4-modda. Jinoyat-protsessual qonunchiligining ajnabiy fuqarolarga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan amal qilishi

(4-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni yuritish O'zbekiston Respublikasi hududida ushbu Kodeksga muvofiq olib boriladi.

Immunitetga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasi ishtirok etadigan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid kelmaydigan hollarda qo'llaniladi.

Oldingi tahrirga qarang.

(5 — 10-moddalar O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 28-sentabrdagi O'RQ-262-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O'R QHT, 2010-y., 39-son, 340-modda)

2-bob. JINOYAT PROTSESSI PRINSIPLARI

11-modda. Qonuniylik

Oldingi tahrirga qarang.

Sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, himoyachi, shuningdek jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#), ushbu Kodeks va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga aniq rioya etishlari va ularning talablarini bajarishlari shart.

(11-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Qonunlarni aniq bajarishdan va ularga rioya qilishdan har qanday chekinish, qanday sabablarga ko'ra yuz berganidan qat'i nazar, jinoyat protsessida qonuniylikni buzish hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

12-modda. Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi

O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasiga](#) muvofiq jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni faqat sud amalga oshiradi.

13-modda. Jinoyat ishlarini hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqish

Oldingi tahrirga qarang.

Jinoyat ishlari hay'atda ko'riladi, Jinoyat kodeksi 15-moddasining [ikkinchi — to'rtinchi](#) qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar esa, sudya tomonidan yakka tartibda ko'riladi.

(13-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 29-yanvardagi O'RQ-463-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2018-y., 03/18/463/0634-son — 2018-yil 1-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

Agar sudya tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqilayotgan jinoyat ishi bo'yicha sud muhokamasi vaqtida Jinoyat kodeksi 15-moddasining [beshinchi qismida](#) nazarda tutilgan jinoyatlar sodir etilganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa, ishning ko'rilishi uni yakka tartibda ko'rib chiqishni boshlagan sudya tomonidan davom ettiriladi.

(13-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 29-yanvardagi O'RQ-463-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2018-y., 03/18/463/0634-son — 2018-yil 1-apreldan kuchga kiradi)

Ish birinchi instansiya sudi tomonidan hay'atda ko'rilganda sud tarkibiga sudya va ikki nafar xalq maslahatchisi kiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni uch nafar sudyadan iborat tarkibda ko'rib chiqadi.

Odil sudlovni amalga oshirishda xalq maslahatchilari sudyaning barcha huquqlaridan foydalanadilar. Ular sud majlisida ishni ko'rish jarayonida kelib chiqadigan hamma masalalarni hal qilishda va hukm chiqarishda raislik qiluvchi bilan teng huquqqa egadirlar.

Oldingi tahrirga qarang.

Tegishli sud hay'atlarida apellatsiya va kassatsiya tartibida ishlarni ko'rish uch nafar sudyadan iborat tarkibda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining hukmlariga apellatsiya va kassatsiya shikoyatlari (protestlari) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atida besh nafar sudyadan iborat tarkibda ko'rib chiqiladi.

(13-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-664-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/664/0014-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(13-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-664-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/664/0014-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(13-moddaning yettinchi qism O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-martdagi O'RQ-421-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2017-y., 13-son, 194-modda)

14-modda. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi

Odil sudlovni amalga oshirishda sudyalar va xalq maslahatchilari mustaqildirlar hamda faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalar va xalq maslahatchilari jinoyat ishlarini qonun asosida ko'rib chiqadilar va hal qiladilar.

Sudyalar va xalq maslahatchilarining odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka

sabab bo'ladi.

15-modda. Jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarlighi

Oldingi tahrirga qarang.

Prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda, o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishlari, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko'rishlari shart.

(15-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 18-sentabrdagi O'RQ-335-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2012-y., 38-son, 433-modda)

16-modda. Odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish

Jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlov fuqarolarning, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi.

17-modda. Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish

Sudya, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi ishda qatnashayotgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari shart.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, uning shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlar tarqalib ketishiga olib keladigan, sog'lig'ini xavf ostiga qo'yadigan, asossiz ravishda unga jismoniy va ma'naviy azob-uqubat yetkazadigan harakatlar qilish yoki qarorlar chiqarish taqiqlanadi.

18-modda. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish

Jinoyat ishini yuritish uchun mas'uliyatli barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessida qatnashayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishlari shart.

Oldingi tahrirga qarang.

Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

(18-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi O'RQ-100-sonli Qonuni tahririda — Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y., 6-son, 249-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Sud va prokuror qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum etilgan yoki qonun yoxud sud hukmida nazarda tutilganidan ortiq muddat hibsdan ushlab turilgan yoki qamoqda saqlangan yoxud uy qamog'ida bo'lgan har qanday shaxsni darhol ozod qilishi shart.

(18-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

Fuqarolarning shaxsiy hayoti, ularning turar joylari daxlsizligi, o'zaro yozishmalari, telegraf aloqalari va telefon orqali so'zlashuvlarining sir saqlanishi qonun bilan qo'riqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Shaxs egallab turgan turar joy yoki boshqa bino va hududda tintuv o'tkazish, olib qo'yish, ko'zdan kechirish, aloqa muassasalarida pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va ularni olib qo'yish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish faqat ushbu Kodeksda belgilangan hollarda va tartibda amalga oshirilishi mumkin.

(18-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-noyabrdagi O'RQ-651-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2020-y., 03/20/651/1577-son)

Ishni yuritish jarayonida shaxsning huquq va erkinliklarini buzish oqibatida unga yetkazilgan zarar ushbu Kodeksda belgilangan asoslar va tartibda undirilishi lozim.

19-modda. Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi

Oldingi tahrirga qarang.

Barcha sudlarda jinoyat ishlari oshkora ko'riladi, bundan davlat sirlarini qo'riqlash manfaatlariga zid keladigan hollar, shuningdek jinsiy jinoyatlar to'g'risidagi ishlar ko'rilayotgan hollar mustasno.

Sudlarda jinoyat ishlarini oshkora ko'rish sudning tashabbusi bilan yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarining iltimosnomasiga ko'ra audio- va videoyozuvdan foydalangan holda, shuningdek videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishi mumkin.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni, shuningdek fuqarolarning shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlarni yoki ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik maqsadida hamda jabrlanuvchining, guvohning yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning, xuddi shuningdek ular oila a'zolarining yoki yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash taqozo etilgan hollarda boshqa ishlarni sud ajrimi bilan yopiq sud majlisida ko'rishga yo'l qo'yiladi.

Shaxsiy yozishma va shaxsiy telegraf xabarnomalari ochiq sud majlisida faqat bu xat va xabarlarni jo'natgan hamda olgan shaxslarning roziligi bilan o'qib eshittirilishi mumkin. Aks holda ular yopiq sud majlisida o'qib eshittiriladi va tekshiriladi.

Ishni yopiq sud majlisida ko'rish barcha protsessual qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Ishni yopiq majlisda ko'rish to'g'risidagi sudning ajrimi butkul muhokamaga nisbatan yoki uning alohida qismlariga nisbatan chiqarilishi mumkin. Bu ajrim sud majlisiga yig'ilganlarga taalluqli bo'lib, jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Yopiq sud majlisida videokonferensaloqa tizimidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi, bunday majlisni audio- va videoyozuvga olish esa amalga oshirilmaydi.

Sud sudlanuvchining va jabrlanuvchining yaqin qarindoshlarini, shuningdek boshqa shaxslarni yopiq majlislarda tekshiriladigan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirib, ularning bu majlislarda hozir bo'lishiga ruxsat berishga haqli.

Sud majlisi zalida tartibni saqlab turish uchun zarur bo'lgan hollarda, sud ayrim shaxslarning sudning ochiq majlislarida hozir bo'lishini taqiqlashga haqli.

Sud zalida ovozlarni yozib olish, fotosuratga, videoyozuvga va kinotasvirga olishga faqat sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi, bu haqda tegishli ajrim chiqariladi.

Sud hukmlari, ajrimlari va qarorlari barcha hollarda oshkora e'lon qilinadi.

Sudning qonuniy kuchga kirgan qarorlari jinoyat protsessi ishtirokchilarining roziligi bilan yoki shaxsini ko'rsatmagan tarzda sudning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi mumkin, bundan yopiq sud majlislarida ko'rilgan ishlar bo'yicha sud qarorlari mustasno.

Sudlov faoliyatida oshkoralikni kengaytirish uchun sudlar zarur hollarda ommaviy axborot vositalari xodimlarini, tegishli jamoat birlashmalarini va jamoalarni bo'lajak protsesslar to'g'risida xabardor qilishi, shuningdek protsesslarni bevosita korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida hamda ta'lim muassasalarida o'tkazishi mumkin.

Sudlarda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi prinsipini cheklaydigan qo'shimcha talablarni joriy etish taqiqlanadi, bundan ushbu Kodeksda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan hollar mustasno.

(19-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

20-modda. Jinoyat ishlari yuritiladigan til

Jinoyat ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi.

Ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan protsess ishtirokchilariga o'z ona tilida yoki o'zi biladigan boshqa tilda og'zaki yoki yozma arz qilish, ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, iltimosnoma va shikoyatlar bilan murojaat qilish, sudda so'zlash huquqi ta'minlanadi. Bunday hollarda, shuningdek ish materiallari bilan tanishish vaqtida protsess ishtirokchilari qonunda belgilangan tartibda tarjimon xizmatidan foydalanishlari mumkin.

Ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoki protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga taqdim etilishi lozim bo'lgan tergov va sud hujjatlari ularning ona tiliga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib berilishi lozim.

21-modda. Jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilikning ishtiroki

Jinoyat ishi bo'yicha tergov olib borish va ishni sudda ko'rish chog'ida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat sodir etilgan holatlarni aniqlab olish, aybdorlarni qidirish va fosh etish, adolatli hukm chiqarish, shuningdek jinoyatning sodir etilish sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni aniqlash uchun o'z vakolatlari doirasida jamoatchilik yordamidan foydalanishga haqlidir.

Jamoat birlashmalari va jamoalarning vakillari jinoyat ishini yuritishda jamoat ayblovchilari hamda jamoat himoyachilari tariqasida qatnashishga haqlidir.

22-modda. Haqiqatni aniqlash

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek u bilan bog'liq barcha holatlarni aniqlashi shart.

Ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun faqat ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda topilgan, tekshirilgan va baholangan ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan, sudlanuvchidan, jabrlanuvchidan, guvohdan va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslardan zo'rlash, qo'rqitish, huquqlarini cheklash va qonunga xilof bo'lgan o'zgacha choralar bilan ko'rsatuvlar olishga harakat qilish man etiladi.

Ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqilishi kerak. Ishda yuzaga keladigan har qanday masalani hal qilishda ayblanuvchini yoki sudlanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og'irlashtiradigan holatlar aniqlanishi va hisobga olinishi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

Dalillarni to'plash va mustahkamlashda ruxsat berilmagan usullar qo'llanilganligi to'g'risidagi murojaatlar qonunchilikda belgilangan tartibda sud-tibbiy ekspertizasi yoki boshqa ekspertiza o'tkazilgan holda majburiy tekshirilishi lozim.

(22-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

23-modda. Aybsizlik prezumpsiyasi

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak.

24-modda. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta'minlash

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi himoyalash huquqiga ega.

Himoyalash huquqi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud zimmasidagi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga va sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarni tushuntirib berish hamda u o'ziga qo'yilgan ayblovdan himoyalash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishda haqiqiy imkoniyatga ega bo'lishiga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rish majburiyati bilan ta'minlanadi.

25-modda. Sudda ishlarni yuritishda tortishuv

Birinchi instansiya sudining sud majlisida, shuningdek ishlar yuqori sudlarda ko'rilayotganda ish yuritish taraflarning o'zaro tortishuvi asosida amalga oshiriladi.

Ish sudda ko'rilayotganda ayblash, himoya qilish va ishni hal qilish vazifalari bir-biridan alohida bajarilib, aynan bir organ yoki aynan bir mansabdor shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin emas.

Oldingi tahrirga qarang.

Birinchi instansiya sudida ish yuritish faqat ayblovi xulosasi yoki ayblovi dalolatnomasi yoxud tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash uchun ishni sudga yuborish to'g'risidagi qaror mavjud bo'lganda boshlanishi mumkin.